



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning
20__-20__-o'quv yilida 9-sinflar uchun
ona tili fanidan I chorak

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf ona tili fanidan I chorak
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Dunyo tillari orasida o‘zbek tili. “O‘lkamizning asl farzandlari” matni ustida ishlash	1		
2.	Mustahkamlash. Matn va lug‘at bilan ishlash	1		
3.	So‘z birikmasi va gap bo‘laklari bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash	1		
4.	Uyushiq va ajratilgan bo‘laklar bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash	1		
5.	Undalmali va kirish so‘zli gaplar bo‘yicha o‘tilganlarni takrorlash	1		
6.	”O‘zbekistonning tarixiy shaharlari” matni va lug‘at bilan ishlash	1		
7.	1-nazorat ishi	1		
8.	Sodda va qo‘shma gaplar	1		
9.	Qo‘shma gap qismlari va ularni bog‘lovchi vositalar. “Sayohat taassurotlari” matni bilan ishlash.	1		
10.	Qo‘shma gaplar tasnifi. “Hashar” matni ustida ishlash	1		
11.	Mustahkamlash. Matn va lug‘at bilan ishlash	1		
12.	Bog‘langan qo‘shma gap haqida ma’lumot	1		
13.	Biriktiruv bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap	1		
14.	Zidlov bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap. “Qo‘shnilar haqida ikki voqea” audiomatni bilan ishlash	1		
15.	Ayiruv bog‘lovchilari yordamida bog‘langan qo‘shma gap	1		
16.	Inkor bog‘lovchisi yordamida bog‘langan qo‘shma gap	1		
17.	Bo‘lsa, esa so‘zi yordamida bog‘langan qo‘shma gap. “Asror bobo” matni ustida ishlash	1		
18.	2-nazorat ishi	1		
19.	Matn va lug‘at ustida ishlash	1		
20.	Ergashgan qo‘shma gap haqida ma’lumot. Bosh va ergash gap	1		
21.	Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar	1		
22.	Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar	1		
23.	Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar	1		
24.	Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gaplar	1		
25.	Shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gaplar	1		
26.	3-nazorat ishi	1		
27.	Takrorlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Dunyo tillari orasida o'zbek tili. "O'lkamizning asl farzandlari" matni ustida ishlash

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to'g'ri yozish ko'nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o'qilgan matnlardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o'qib-o'rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko'nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

O'LKAMIZNING ASL FARZANDLARI

XX asr boshlarida yurtimizda shunday ziyolilarimiz maydonga chiqdiki, ular butun millat yukini yelkalariga oldi, millatini ma'rifatli xalqlar qatorida ko'rishni xohladi. Bu ma'rifatparvarlar yangicha hayotni, yangicha turmush tarzini, yangicha dunyoqarashni, yangicha insonlarni, yangicha olkani ko'rishni istadi. Butun salohiyati va jonini shu yolg'a tikkan millatsevar, ilmparvar jad id laming aksariyati o'ziga to'q, badavlat xonadon laming farzandlari edi. Ular zamonaviy ilmlarni o'rganib, dunyo kezib, o'z millatining asl holini angladi, bundan orlanmadi, qoloqlik va jaholatni tabiiy hoi sifatida qabul qilmadi. Yangicha ilmlarni o'rganib, o'zga yurtlarda qolib ketmadi. Vatanga qaytib, millatning taraqqiy

etishini xohladi, uning kelajagi uchun qayg'urdi. Keyinchalik bu ommaviy harakatga aylandi.



Jadidlar taraqqiyotning yagona kaliti ilm, ma'rifat ekanini anglab, millat farzandlarini savodli qilish uchun shaxsiy mablaglarini ayamay sarfladi. Ularning sa'y-harakati bilan bepul ta'lim beriladigan yangi usul maktablari ochildi, kutubxonalar barpo etildi, maktablar uchun darsliklar yozildi. Zamonaviy ilm egallashlari uchun yuzlab zeharli yoshlarni Germaniya, Turkiya va Rossiyadagi dorilfununlarga jo'natishdi. Bundan tashqari, teatrlar ochib, o'qimagan kishilarning fojiali holatini ko'rsatib, xalqni ilm olishga, hunar egallashga undashdi. Yangi gazeta va jurnallar ta'sis etib, xalqning maishiy ahvolini, turmushida yuz berayotgan yangiliklarni e'lon qilib bordilar. Xalqning tafakkurini, dunyoqarashini o'zgartirishga harakat qildilar. Ularning yagona maqsadi o'lkaning taraqqiy etgan, rivojlangan yurtlar sirasidan joy egallashini ko'rish edi. Bu harakat ularga yaxshilik olib kelmasligini ham bilishar edi. Darhaqiqat, mustamlakachilik tuzumi jadidlarga qarshi harakat boshladi: ular ommaviy "qatag'on mashinasi"da nobud qilindi, ma'rifat bo'g'ildi. Vatani, millati taraqqiy etishini astoydil xohlagan, bu yo'lda molini ham, jonini ham ayamagan shunday o'g'lonlar yurtning asl farzandlari: Munawarqori Abdurashidxonov, Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sharafiddin Xo'jayev, Ubaydulla Xo'jayev, Ismoil Obidiy, Elbek, Botu kabilardir. Maqsadi oliy, otashqalb bobolarimiz sa'y-harakati bilan o'lkamizda ilk jadid maktablari, universitetlar va teatrlar tashkil etildi, ko'plab kutubxona va bosmaxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Millatning bilimsizlik botqog'idan qutulishining yagona yo'li ma'rifat bayrog'ini mahkam tutish ekanligi tarixiy haqiqatga aylandi.

Shohrux ABDURAIMOV

Jadvaldagi birliklarning matndagi ma'nosiga sinonim bo'la oladigan so'zlarni toping va yozing.

SO'ZLAR	SINONIMI	SO'ZLAR GURUHI
istamoq	xohlamoq	sidqidildan, xohlamoq, ko'tarmoq, o'smoq, birdan bir, umumiy, chinakam, yo'q qilmoq, universitet, da'vat qilmoq, dastlabki, fanlar
yelkasiga olmoq	***	
taraqqiy etmoq	***	
ommaviy	***	
dorilfunun	***	
undamoq	***	
nobud qilmoq	***	
astoydil	***	
asl	***	

Matn asosida chiqarilgan quyidagi javob hukmlariga savollar tuzing.

Namuna

XX asr boshlarida o'lkamizda qanday avlod maydonga chiqdi?

XX asr boshlarida o'lkamizda millatini ma'rifatli xalqlar qatorida ko'rishni xohlagan ziyoli avlod maydonga chiqdi.

1 Jadidlar o'z boyliklarini xalqning ma'rifa tli bo'lishi uchun sarflagan.

2 Jadidlar xalqning asl holini ko'rsatib berish uchun teatrlar ochgan.

3. Jadidlar xalqini ma'rifa tli qilishga intilgani uchun mustamlakachi tuzum tomonidan jisman yo'q qilingan.

4. Jadidlar yoshlarni zamonaviy ilmlarni o'rganib kelishi uchun o'zga yurtlarga o'qishga jo'natgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Vatan deganda kofz oldingizda kim yoki nimalar gavdalanadi? Ulardan uchtasini ayting. Nima uchun ularni tanlaganingizni izohlang.

2. "Ona yurt" mavzusida surat chizsangiz, qaysi ranglardan foydalangan bo'lardingiz?

3. Nima deb o'ylaysiz: insonni yurt! mashhur qiladimi yoki yurtini inson?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Jadidlar tilidan bugunning yoshlariga maktub yozib keling va matnda quyidagi hikmatlardan foydalaning.

1. Vatanni sevish unga xizmat qilishdir.

2. Millatni sevmok, Vatanni sevmok axloq bilan boshlanur.

3. Vatan, sening yo'lingda o'lish yashashdir!

4. Kim Vatanni sevs, qalbi ozoddir

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Mustahkamlash. Matn va lug‘at bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– mavzu doirasida berilgan matnlar mazmuni orqali milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;

– o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Xato yozilgan so‘zlarni matnga qarab tuzatib, daftaringizga ko‘chiring.

Turmish, aksaryat, hohlamog, kutibxona, zexnli, Germanya, Turkeya, Rossiya, tiatr, tuzim, sa‘yi harakat, faolyat.

So‘z tarkibida kelgan ayrim undosh tovushlar talaffuzi va imlosi bir-biridan farq qiladi.

1. Odatda so‘z oxirida va ba‘zan so‘z o‘rtasida kelgan jarangli undosh tovushlar jarangsiz undosh sifatida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq jarangli yoziladi:

B — P = B: ibtido — iptido = ibtido, mubtalo, zarb etmoq, oftob

V — F = V: avtobus - aftobus = avtobus. avtomobil, avtomat, avtor

D — T = D: esdalik — estalik = esdalik. band, tadqiqot, limonad

Z — S = Z: rizq - risq = rizq. iztirob, tuzsiz, izquvar

G — K = G: barg — bark = barg, pedagog, tuggan, okrug

2. So‘z tarkibida ayrim undoshlar ikkilantirib talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq bitta yoziladi:

ovora — owora = ovara

maza, melodrama, tanovul

3. So‘z tarkibida yonma-yon kelgan ayrim undoshlar bitta talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq ikkita yoziladi:

muassasa — muas(s)asa = muassasa

ssenariy, grammatika, kilo va tt

Nuqtalar o‘rniga tushirib qoldirilgan harfni qo‘yib, so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring. Yozganlaringizni imlo lug‘atidan tekshiring.

Fransu...lar, aja...tovur, shogir...lar, mansa...parast, nadoma..., ijo...korlik, iska...topar,

ba...xulq, qas...dan, bunyo...kor, ta...biq, ta...qiqot, ta...simot

So‘zlar juftligidan to‘g‘ri yozilganlarini aniqlang.

tajovvuz	tajovuz	mutaxassis	mutaxasis	muvaffaq	muvafaq
stres	stress	diller	diler	dramma	drama
to‘rttalasi	to‘rtalasi	metall	metal	kommunal	komunal

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Xalqaro musobaqa va olimpiadalarda Vatanimiz sharafiga himoya qilayotgan yurtdoshlarimiz g‘alabaga erishsa yoki yutqizsa, sizni qanday hissiyotlar qamrab oladi, nega insonda shunday holat ro‘y beradi?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: “ Ba‘zilar sportni yoshlarda vatanparvarlik ruhini shakllantiruvchi eng" ta’sirchan vosita deb bilishadi, boshqalar esa bunga qo‘shilmaydi” fikri asosida muhokama essesi yozing.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

59 listdan iborat ona tili fanidan 9-sinf I chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

[@Maktablar_uchun_hujjatlar](https://t.me/@Maktablar_uchun_hujjatlar)

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**